

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING INTELEKTUAL SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH

Kulbekova Nodira Klichbekovna

Jizzax viloyati Sh.Rashidov tumani, 15- umumiy o'rta ta'lim

Boshlang'ich sinf katta o'qituvchisi Toifa: 2- bdimi

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarning intellektual salohiyatini oshirish hamda dars jarayoniga kreativ yondashish haqida so'z yuritiladi

KALIT SO'ZLAR: evristik – empirik yo'l, J. Gilfopd, qayishqoqlik, kreativlik, pedagogik-psixologik

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim sifatini oshirishda turli yondoshuvlar taklif etilib, amaliyotga tadbiiq etilmoqda. Ta'lim jarayoniga zamonaviy yondoshuvlardan biri-kreativ yondoshuv hisoblanadi. Bizga ma'lumki, maktab amaliyotida ijod, ijodkorlik kabi terminlar ko'p ishlatilib kelinadi. Pedagogik-psixologik adabiyotlarda quyidagicha ta'riflanadi. "Ijod – intelektning motivatsion struktura orqali singdirilgan mahsuli. Bu struktura uning namoyon bo'lishini sekinlatadi, yoki rag'batlantiradi". Shaxsning ijodiy ifodalari "tadqiqoti birligi" sifatida ruhshunos aqliy qobiliyatlar va shaxsiy omillarni birlashtiruvchi intellektual faollikni ko'radi. Intellektual faollik va ijod tipologiyasi muammosini o'rganar ekanmiz, intellektual faollik darajalari va ularning ijod bilan mutanosibliigi masalasida optimal va argumentlangan pozitsiyasidan iboratligini ko'ramiz.

ASOSIY QISM

Intellektual faollikning uch sifat darajasini ajratib ko'rsatishimiz mumkin: rag'batli-unumli; evristik; kreativ. Shu bilan birga birinchi daraja "umumiy iste'dod" tushunchasiga mos keladi. Ikkinchi daraja – evristik, qachonki inson yetarlicha ishonchli yechim usuliga ega bo'lgani holda, "o'z faoliyatining tarkibi, strukturasini tahlil qilishda davom etadi, alohida vazifalarni o'zaro solishtiradi. Bu esa yangi, orginal, tashqi ko'rinishdan ancha aqli yechim usullarini kashf etishga olib keladi". Intellektual faollikning eng yuqori darajasi kreativ daraja sanaladi. Ushbu darajada inson tomonidan aniqlangan qonuniyat formal usul emas, balki mustaqil muammoga aylanadi. Mazkur pozitsiyaga qo'shilgan holda, biz bir faktni tan olamizki, ijodning prinsipial jihatdan ikki xil darajasiga ikki turdagi tafakkur – empirik va nazariy mos keladi. Intellektual faollik darajalarining ushbu tasnifiga ijod tipologiyasi ham asoslanadi. Rag'batli-unumli darajada insonlar qat'iy farazlar va orginal kashfiyotlarga qodir. Ikkinchi daraja – evristik – empirik yo'l bilan yangi qonuniyatlarni kashf etishga mos keladi, kreativ daraja esa nazariy kashfiyotlar bilan mutanosiblik kasb etadi. Kreativlik o'zida integrativ shaxs sifatini namoyon etadi degan fikrni asos qilib olar ekanmiz, kreativlikning tarkibiy qismlarini tahlil qilib chiqamiz. Kreativlik ifodalarning sezilarli qismi tafakkur sohasiga tegishli, shuning uchun J. Gilfopd tomonidan taklif etilgan mashhur intellekt tarkib modeli haqida eslab o'tish muhim: 1.Bilish (axborotni idrok etish, bilib olish, anglash va tushunish jarayonlari); 2.Xotira (axborotni saqlash va qayta ijro etish mexanizmi); 3.Divergent fikr yuritish (tasavvurga asoslanadi va orginal g'oyalar tug'ilishiga vosita bo'lib xizmat qiladi); 4.Konvergent fikr yuritish (turlicha imkoniyatlarni qamrab olishdan farqli ravishda muayyan javobga "mo'ljallanish"ni ko'zda tutadi) 5.Baholash tafakkuri (o'rnatilgan mezonlar yoki standartlar bilan

taqqoslash mexanizmi). J. Gilford kreativlikning olti parametrini ajratib ko'rsatadi: 1) muammoni aniqlash va uni ko'tarish qobiliyati; 2) ko'p miqdordagi g'oyalarni yuzaga chiqarish qobiliyati; 3) qayishqoqlik - turli g'oyalarni hosil qilish qobiliyati; 4) orginallik – muammo qo'zg'ovchiga nostandart reaksiya bildirish qobiliyati; 5) detallarni qo'shish yo'li bilan obyektни takomillashtirish qobiliyati; 6) tahlil va sintez vositasida muammolarni hal etish qobiliyati. Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, boshlang'ich sinfdan boshlab o'quvchilarni kreativ sifatlarini tarkib toptirishga ahamiyat berilsa, bola intellektini rivojlanishiga erishib boramiz. Bu esa o'qituvchi mahoratiga va tinimsiz izlanishiga bog'liq.

XULOSA

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni kreativligini shakllantirishda bir qator -“Piktogramma”, “O'xshashini top”, “Har uyga o'zining tomi”, “Chalkash zanjir” va boshqa o'yinli texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Masalan, “O'xshashini top” o'yinli texnologidan quyidagicha foydalanish mumkin. Bunda o'quvchilarga bir-biriga aloqasi bo'lmagan so'zlar taqdim etilib, ularning bog'liqlik ya'ni, o'xshash jihatlarini topish talab etiladi. Bu kabi o'yinli texnologiyalar bola shaxsini intellektual rivojlanishiga imkon yaratib beradi.

ADABIYOTLAR

1. Saidaxmedov N. “Yangi pedagogik texnologiyalar mohiyati”. “Xalq ta'limi” jurnali. 1999,1-son
2. Farberman. B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. T.,2001
3. Джени Стил, Керт Мередис, Чарльз Темпл. Проект: Чтение и письмо для развития критического мышления. Пособие 1-7. – Бишкек: 2000. –235 с.
4. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving).-Alexandria-Virginia,USA:ASCD. 2014.